



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



## INNOVATSIYALARNI RAG'BATLANTIRISHDA RAQOBAT SIYOSATI

### Maqsudov Bunyod

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Bank ishi kafedrasining katta o'qituvchisi*

### Raupov Akbar

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada raqobat siyosatining innovatsion rivojlanishni rag'batlantirishdagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda sof raqobat muhitini kengaytirish, monopoliyalashuv darajasini kamaytirish, kartellarga qarshi choralar va raqamli bozorlarni tartibga solish orqali innovatsion jarayonlarni faollashtirish imkoniyatlari yoritiladi. Shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligi, startaplar ekotizimi va xalqaro tajribani o'rganish asosida milliy raqobat siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *raqobat siyosati, innovatsiya, bozor mexanizmlari, monopoliyalashuv, startaplar, raqamli bozorlar, davlat-xususiy sektor hamkorligi*

**Аннотация:** *В данной статье рассматривается роль конкурентной политики в стимулировании инновационного развития. Исследование охватывает вопросы расширения среды свободной конкуренции, снижения уровня монополизации, предотвращения картельных соглашений и регулирования цифровых рынков как факторов усиления инновационной активности. Кроме того, на основе изучения международного опыта предлагаются направления совершенствования национальной конкурентной политики, включающие поддержку стартап-экосистемы и развитие партнерства государства и частного сектора.*

**Ключевые слова:** *конкурентная политика, инновации, рыночные механизмы, монополизация, стартап-экосистема, цифровые рынки, государственно-частное партнерство*

**Abstract:** *This article analyzes the role of competition policy in promoting innovation within modern economies. The study highlights the importance of fostering open and fair competition, reducing market monopolization, preventing cartel behavior, and regulating digital markets as key drivers of innovation. It also discusses the significance of public-private cooperation and the development of startup ecosystems. Based on international best practices, the paper proposes several recommendations for improving national competition policy to enhance innovative capacity.*

**Keywords:** *competition policy, innovation, market mechanisms, monopolization, startup ecosystem, digital markets, public-private partnership*

Zamonaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va global bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish eng avvalo innovatsion jarayonlar bilan belgilanadi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Innovatsiyalar esa o'z mohiyati bilan erkin raqobat mavjud bo'lgan, bozor ishtirokchilari yangi g'oya va texnologiyalar orqali ustunlikka erishishga intilgan sharoitda shakllanadi. Shu boisdan ham raqobat siyosati nafaqat adolatli bozor muhitini ta'minlash, balki innovatsion salohiyatni kuchaytirishda ham muhim omil sifatida qayd etiladi.

O'zbekiston iqtisodiyotida olib borilayotgan islohotlar jarayonida innovatsion ekotizimni rivojlantirish, startaplarni qo'llab-quvvatlash, texnoparklar faoliyatini kengaytirish va raqamli iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Ammo bozorning ayrim segmentlarida monopoliyalashuvning nisbatan yuqoriligi, raqobat siyosatining yetarlicha samarali ishlamasligi, kichik innovatsion subyektlar uchun kirish to'siqlarning mavjudligi innovatsion yuksalishga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu ma'noda, mazkur maqola raqobat siyosatining innovatsiyalarni rag'batlantirishdagi o'rnini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar berishni maqsad qiladi.

Raqobat siyosati deganda, bozor ichida raqobat muhitini yaratish, kartel va monopolistik holatlarni cheklash, bozorga yangi ishtirokchilarning kirishini ta'minlashga qaratilgan institutsional mexanizmga aytiladi. Bu siyosatning asosi bo'lib bozor samaradorligi, iste'molchi manfaatlari va resurslarning optimal taqsimlanishi turadi. Biroq so'nggi vaqtlarda iqtisodiy nazariyalar va empirik tadqiqotlar raqobat siyosatining yana bir muhim funksiyasi innovatsiyalarni rag'batlantirish imkoniyatini ekanligini ko'rsatmoqda.

Innovatsiyalar esa bu yangi g'oyalar, texnologiyalar, mahsulot yoki xizmatlar shaklida namoyon bo'ladigan yangilanishlar bo'lib, ularning joriy qilinishi esa nafaqat firma daromadini oshiradi, balki umumiy iqtisodiy taraqqiyot uchun ham muhim hisoblanadi. Raqobat muhitining mavjudligi firmalarni yangilik yaratishga, samaradorlikni oshirishga undaydi; bu esa iqtisodiyotning dinamikligini ta'minlaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarda raqobat va innovatsiya o'rtasidagi munosabat ikki asosiy maktabda tahlil qilingan. Birinchisi klassik yokida monopol drayveri qarashga ko'ra, katta va kuchli firmalar monopol holatda bo'lish orqali resurslarini tadqiqot va rivojlanish (R&D) yo'nalishiga yo'naltira oladi. Ularning moliyaviy salohiyati va miqyos afzalligi innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlaydi. Ikkinchi esa raqobat bosimi yondashuvi, masalan, raqobatning intensivligi yuqori bo'lganda firmalar ham yangi yechimlar bilan farqlanishga intilishi, buning asosida esa yetarli, lekin ustuvor bo'lmagan raqobat innovatsiyani maksimal rag'batlantiradi. Juda kuchli monopol yoki juda keskin raqobat har ikkisi ham salbiy bo'lishi mumkin.

Yangi tahlillar, xususan, so'nggi [2023-yilda e'lon qilingan](#) tahlil shuni ko'rsatadiki, raqobat va innovatsiya o'rtasidagi munosabat sanoat, bozor tuzilmasi, texnologik xususiyat va firmalar farqlariga bog'liq; universal raqobat ko'p bo'lsa, innovatsiya ko'p bo'ladi formulasi har doim ishlamaydi.

Monopol yoki yuqori konsentratsiyaga ega bozorlar ba'zi holatlarda innovatsiyani rag'batlantirishi mumkin Katta firmalar R&D va katta hajmdagi texnologik investitsiyalarni amalga oshirishga qodir. Ular riskni o'z zimmasiga olib, uzoq muddatli loyihalarni





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



ko'zlaydi. Bu ayniqsa infratuzilma, yuqori kapital talab qiladigan sohalar uchun dolzarb. Agar innovatsiyalar natijasida bozor strukturasi o'zgarish bo'lsa, bu yangi imkoniyatlar ochadi, eski firmalarning raqobatdagi pozitsiyasini qayta ko'rib chiqishga undaydi. Ba'zan bunday to'pponcha effekt bevosita iqtisodiyotga rag'bat beradi.

Biroq monopol subyektlar bozorga yangi kiruvchi firmalarni siqib chiqarishi, ya'ni kirish to'siqlari yaratishi mumkin. Bu esa innovatsiyaning kreativ oqimini to'xtatadi. Monopol holatda narx va sifat ustidan raqobat bo'lmagani bois, mahsulot va xizmatlar sifati va yangilanishi sekinlashadi, yangi texnologiyalar joriy qilinmaydi. Iste'molchi tanlovi cheklanadi, rivojlanish rag'bati susayadi.

Nazariy va empirik [tadqiqotlar](#) shuni ko'rsatadiki, raqobat siyosati va bozor tuzilmasini shakllantirishda maqsadli va sektorlarga mos chora-tadbirlar zarur. Faqatgina kuchli raqobat yoki kuchli konsentratsiyani umumiy rejaga qo'yish noto'g'ri yondashuv bo'lishi mumkin.

Sog'lom raqobat muhitini ta'minlaydigan siyosat innovatsiyani bir necha asosiy yo'nalishda rag'batlantiradi. Avvalo shaffof va erkin bozor sharoitida yangi firmalarning kirishi osonlashadi va bu yangicha mahsulot hamda xizmatlarning doimiy ravishda paydo bo'lishiga imkon yaratadi. Bundan tashqari kuchli raqobat bosimi korxonalarini samaradorlikni oshirish uchun izlanishga undaydi va bu izlanishlar ilmiy tadqiqotlar hamda texnologik yangilanishlarga qo'shimcha sarmoya kiritilishiga olib keladi. Shuningdek bozor konsentratsiyasining pasayishi kartellarning oldi olinishi va kirish to'siqlarining yumshatilishi innovatsion startaplar bilan kichik texnologik kompaniyalar rivojlanishi uchun qulay imkoniyat yaratadi. Natijada raqobat siyosati bozorning sog'lom faoliyatini ta'minlash bilan birga innovatsion salohiyatni kuchaytiradigan asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Bozor mexanizmi va davlat siyosati birgalikda ishlaganda innovatsion raqobatga kuchli turtki bo'lishi mumkin. Antimonopol siyosat narxlarni, sifatni va texnologik yangilanishlarni tartibga solishda muhim vositadir. Agar monopol yoki konsentratsiyalashgan bozor tuzilmasi mavjud bo'lsa, u yangi innovatsiyalarni jalb qilishga, kichik va o'rta korxonalar faoliyatiga, startaplarga to'siq bo'lishi mumkin. Shu bois bozorni ochiq, shaffof va adolatli tutish orqali raqobatni rag'batlantirish innovatsion jarayonlar uchun qulay zamin yaratadi. Bu tamoyil xususiy sektor va kichik biznes uchun ayniqsa muhimdir. Davlat siyosatining tartibga solish mexanizmlariga imtiyozlar, grantlar, soliq va fiskal rag'batlar, innovatsion kompaniyalar va startaplar uchun qo'shimcha rag'batlar kiradi. Masalan, soliq imtiyozlari va qulay soliq rejimi innovatsion faoliyatni boshlash va olib borish xarajatlarini kamaytiradi, bu esa yangi texnologiyalarni joriy qilishni rag'batlantiradi.

[O'zbekiston misolida](#), davlat tomonidan innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash tizimi shakllanmoqda. Texnoparklar, innovatsiya markazlari va startaplar huquqiy maqomini tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza yaratildi. Bu chora-tadbirlar kichik va o'rta korxonalar hamda startaplar faoliyatiga qulay muhit yaratib, raqobat va yangiliklar oqi mini oshirishga xizmat qiladi. Biroq hozirgi holatda ayrim muammolar ham mavjud. Grant dasturlari va soliq imtiyozlari yetarli darajada keng emasligi, venchur kapital bozori



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



rivojlanmaganligi, hamda bozor konsentratsiyasini susaytiruvchi choralar biroz sustligi startaplar va kichik innovatorlar rivojiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Shunday ekan, bozor mexanizmlari va davlat siyosatini uyg'unlashtirish orqali, ya'ni bozorni ochiq qilib, raqobatni rag'batlantirib, va innovatsion subyektlarga imtiyozlar berish orqali innovatsion raqobat kuchayadi, startaplar va yangi korxonalar rivoj topadi, hamda milliy iqtisodiyot texnologik yangilanish va farovonlik sari yo'l oladi.

Sof raqobatni kengaytirish va monopoliyalashuv xavfini kamaytirish raqobat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Agar bozorda bir nechta kichik va o'rta firma faol bo'lsa va ularga teng imkoniyatlar yaratilsa, bu firmalar o'zaro raqobat asosida turli yangilik va takomilliklar ustida ishlashga intiladi. Bunda bozor konsentratsiyasini kamaytirish, monopol holatlarni cheklash, ya'ni bozorga kirish va faoliyat yuritish uchun minbar kengaytirish orqali innovatsion jarayonlar faollashadi.

Adolatli raqobat qoidalarini kuchaytirish ham muhimdir. Kartel kelishuvlari, narx yoki bozor taqsimoti orqali raqobatni cheklovchi harakatlar oldini olish, raqamli bozorlar va onlayn platformalarga alohida e'tibor berish bu yo'lda zarur. Ayniqsa, raqamli bozorlar tobora kengayayotgan bir paytda ularning sifatli va erkin raqobat muhitida ishlashi, katta texnologik kompaniyalar ustunligi suiiste'molini cheklash orqali yangi innovatsion startap va kichik biznes subyektlari rivojlanishiga keng yo'l ochadi. Bunday holat bozorni moslashuvchan saqlash va yangiliklar oqimini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligi orqali innovatsion ekotizimni qo'llab-quvvatlash ham raqobat siyosatining takomillashtirilishi yo'nalishidir. Davlat grantlari, soliq yengilliklari, tadbirkorlik va startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlari kichik va o'rta korxonalar, yangi firmalar uchun investitsiya xarajatlarini yengillashtiradi hamda ular analiz, tadqiqot va texnologik yangilanishlarga ko'proq sarmoya kiritishga undaydi. Shunday muhit yaratilsa, kichik subyektlardan tortib katta korxonalargacha, hamma raqobat asosida taraqqiy topadi.

Xalqaro tajriba asosida takliflar tayyorlash esa milliy raqobat siyosatini modernizatsiya qilishda muhim. Tajribali davlatlar kartellarga qarshi choralar, raqamli bozorlarni tartibga solish, davlat-xususiy sektor hamkorligi, institutsional islohotlar orqali raqobat va innovatsiyani uyg'unlashtirish bo'yicha samarali mexanizmlar yaratgan. Ushbu tajribalarni o'rganib, ularni mamlakatimiz sharoitiga moslab joriy etish raqobat siyosatini takomillashtirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga yordam beradi.

Shunday ekan, sof raqobatni kengaytirish, adolatli raqobat qoidalarini kuchaytirish, davlat-xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish va xalqaro tajriba asosida islohotlar kiritish, barqaror va dinamik innovatsion iqtisodiy muhit yaratish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Raqobat siyosati innovatsion rivojlanishning asosiy omillaridan biridir. Adolatli va ochiq bozor muhiti yangi texnologiyalarni yaratish, mahsulot sifatini oshirish, raqobatbardosh ishlab chiqarish jarayonlarini joriy qilishga imkon yaratadi. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasida muhim qadamlar qo'yilayotgan bo'lsada, raqobat





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILiy TAFakkUR VA INNOVATSION G'oyALAR



siyosatini kuchaytirish, raqamli bozorlarni tartibga solish, startaplar uchun qulay shart-sharoit yaratish kabi yo'nalishlarda yanada izchil yondashuv talab etiladi.

Demak, raqobat siyosatining takomillashtirilishi innovatsion jarayonlarni tezlashtiradi, iqtisodiyotning texnologik yangilanishiga zamin yaratadi va mamlakatning global bozorlaridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. [OECD. \(2023\). Competition and Innovation: Policy Approaches for Dynamic Markets. OECD Publishing.](#)
2. [International Monetary Fund \(IMF\) / Competition, Innovation, and Inclusive Growth \(2021\).](#)
3. [ScienceDirect. \(2022\). Market Concentration and Innovation Performance. Elsevier Journals.](#)
4. [Federal Trade Commission \(FTC\). \(2023\). Competition in Digital Markets: Annual Report.](#)
5. [Innovatsion rivojlanish agentligi. \(2024\). Startap ekotizimi rivoji va davlat qo'llovi bo'yicha hisobot.](#)
6. [World Bank. \(2022\). Boosting Innovation Through Competitive Market Structures.](#)